

O'ZBEKISTONDA IQTISODIY O'SISH SUR'ATLARINI OSHIRISH CHORA-TADBIRLARI VA 2023 YILDAGI O'SISH SUR'ATI KO'RSATKICHLARI.

Quldosheva Xolisa Kamoliddin qizi

Annotatsiya: Ushbu maqolada inflyatsiyaning pasayishi tendensiyasi davom etmoqda, bu esa iqtisodiy muhitni barqarorlashtirishga olib keladigan ko'rsatkichlar o'rganilib dalatimizda va jamiyatimizda iqtisodiy o'sishni rivojlantirish uchun qanday chora-tadbirlar ko'rilayotganligi haqida, iqtisodiy o'sish darajamiz 2023 yil yakunlariga ko'ra qanday ko'rsatkichlarga ega bo'lganligini ko'rishimiz mumkin.

Kalit so'zlar: Inflatsiya, itisodiyot, iqtisodiy o'sish, iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlari.

Inflyatsiyaning pasayishi tendensiyasi davom etmoqda, bu esa iqtisodiy muhitni barqarorlashtirishga olib keladi. Joriy yilning yanvar-sentabr oylarida O'zbekiston yalpi ichki mahsuloti 5,8%ga o'sdi. Bu haqda Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi tahlilida qayd etilgan. Natijada, ko'rsatkich o'tgan yilning shu davridagi o'sish sur'atlaridan (6,2%) bir oz kamroqni tashkil etgan.

Joriy yilning yanvar-sentabr oylarida O'zbekiston yalpi ichki mahsuloti 5,8%ga o'sdi. Bu haqda Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi tahlilida qayd etilgan. Natijada, ko'rsatkich o'tgan yilning shu davridagi o'sish sur'atlaridan (6,2%) bir oz kamroqni tashkil etgan.

Iqtisodiy o'sish - mamlakatda tovarlar ishlab chiqarish va xizmatlar yaratish hajmining oldingi yil (davr)larga nisbatan ko'paygan miqdorda takrorlanishi. Iqtisodiy o'sishni ta'minlash har qanday mamlakat iqtisodiy siyosatining asosiy maqsadi hisoblanadi. Yildan yilga aholi sonining ko'payishi, kishilar ehtiyojlarining mutassil ortib borishi iqtisodiy O'sishni shart qilib qo'yuvchi asosiy sabablardandir. Iqtisodiy O'sish aholi turmush darajasini oshirishga, xalq farovonligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Mamlakat iqtisodiyotida yaratilgan YAIM ishlab chiqarish omillari — yer, kapital va mehnat resurslarining o'zaro ta'sirida shakllanadi. Bular iqtisodiy O'sishning miqdoriy omillariga kiradi (mas, foydalanilayotgan ekin maydonlarni kengaytirish YAIM o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi). Ushbu omillarni ishlab chiqarish jarayoniga kengroq jalb etish natijasida yuz beradigan iqtisodiy O'sishekstensiv o'sish deb ataladi.

Iqtisodiy O'sishning sifat omillari ham mavjud bo'lib, ularga mehnat, kapital va yer (tabiiy) resurslari unumdorligi kiradi. Sifat omillari hisobiga yuz beradigan iqtisodiy O'sish intensiv o'sish deb yuritiladi.

Ishlab chiqarish omillarining cheklanganligi ekstensiv O'sishning imkoniyatlarini chegaralaydi. Shu sababli resurslar cheklanganligi sharoitida intensiv o'sish samarali hisoblanadi. Fantexnika taraqqiyoti ham intensiv iqtisodiy o'sishni rag'batlantiradi. Keyingi yillarda bir qator ijtimoiy qo'rsatkichlar iktisodiy O'sish sharti va natijasi tarzida qaralmoqda. O'sish sohasida — bandlikning yukobiy dinamikasi; taqsimot sohasida — aholining real daromadlari va boshqalar bir qator ko'rsatkichlar dinamikasi; ayirboshlash

sohasida — savdo va umumiy ovqatlanish moddiy bazasining rivoji, chakana savdo aylanmasi dinamikasi; iste'mol sohasida — iste'molning va noishlab chiqarish jamg'arishning o'sishi shunday ko'rsatkichlarga kiradi. Iqqisodiy o'sishning asosiy ijobiy tomoni — uning ishlab chiqarish va iste'mol tuzilmasi o'zgarishlariga ta'sir ko'rsatishidir.

Jahon iqtisodiyotiga ta'sir ko'rsatadigan geosiyosiy beqarorlikning davom etishiga qaramay, umuman olganda, asosiy savdo sheriklari bo'lgan mamlakatlarda qulay iqtisodiy muhit shakllandi.

O'zbekistonda inflyatsiya sekinlashmoqda. To'qqiz oyda narxlar 5,1%ga o'sdi, bu o'tgan 5 yilning shu davriga nisbatan past. Tahlil qilinayotgan davrda oziq-ovqat inflyatsiyasi 5,6%gacha sekinlashdi (2022-yilning 9 oy davomida — 10%). Nooziq-ovqat mahsulotlari narxлари 4,8%ga (7,9%), xizmatlar narxi — 4,7%ga (4,8%) oshdi.

Asosiy kapitalga investitsiyalar hajmining o'sishi 2022-yilning 9 oyidagi 3,3 dan 2023-yilning shu davridagi 11,8%gacha sezilarli darajada oshdi.

Markazlashtirilmagan investitsiyalar bo'yicha ikki xonali o'sish dinamikasi kuzatilmoqda — joriy yilning yanvar-sentabr oylarida 13,6%ga o'sgan.

Xususan, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va kreditlarni jalb qilish bo'yicha yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi — 16,3%. Shu bilan birga, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmi 47%ga oshdi. Tijorat banklarining kreditlari hisobiga 27%ga, aholi mablag'lari hisobidan 10,6%ga oshdi.

Joriy yilda davlat tomonidan kafolatlangan kreditlarning 23,5%ga o'sishi hisobiga markazlashtirilgan investitsiyalar 1,3%ga oshdi. Tahlil qilinayotgan davrda iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida ishlab chiqarishning o'sishi kuzatildi.

Qishloq xo'jaligi jadal sur'atlar bilan — joriy yilning 9 oyida 4,1%ga o'sdi. O'simlikchilik, chorvachilik va o'rmon xo'jaligi tezlashdi, baliqchilik mahsulotlari yetishtirish biroz sekinlashdi — 10,9%.

Sanoat 5,7%ga o'sdi, bu 2022-yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 5,3%ga yuqori. Asosiy drayver — ishlab chiqarish sanoati bo'lib, u 6,4%ga (5,4%) o'sishni ko'rsatdi. Shuningdek, suv ta'minoti, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish tarmoqlarida ham ishlab chiqarish oshdi. Tog'-kon sanoati sohasida garchi 0,4%ga o'sish kuzatilgan bo'lsa-da, lekin bu o'tgan yilga nisbatan (1,1%) past. Energiya ta'minoti, gaz yetkazish va havoni konditsionerlashtirish sohasida o'sish sur'ati 8,9%gacha pasaydi.

Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish o'sish sur'ati 7,7%gacha sekinlashdi. Qurilish sohasi dinamikasida biroz pasayish kuzatilmoqda — 5,6%.

Bozor xizmatlari ko'rsatish hajmi 12,1%ga oshdi. Barcha tarmoqlarda o'sish kuzatilmoqda va quyidagilar eng yuqori o'sish sur'atlarini ko'rsatdi:

- axborot-kommunikatsiya xizmatlari — 24,8%;
- ta'lim — 23,5%;
- moliyaviy xizmatlar — 18,2%;
- turar joy va umumiy ovqatlanish xizmatlari — 10,9%;
- ko'chmas mulk bilan bog'liq bitimlar — 10,2%.

Transport xizmatlari hajmi 7,3%ga oshdi. Yuk tashish va yo'lovchilar aylanmasining o'sish sur'atlari sekinlashdi. Chakana savdo aylanmasi hajmi 7%ga oshdi, ammo bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan — 10,8% past.

Tashqi savdo hajmi 22,1%ga o'sib, \$44,8 mlrdni tashkil etdi. Sezilarli o'sishga qaramay, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan — 29,4%ga kamroq. Eksport 23,5%ga oshib, \$17,7 mlrdni, import 21%ga oshib, \$27 mlrdni tashkil etdi.

Eksport hajmining o'sishi chet elga oltin yetkazib berishning qariyb 90%ga, mashina va transport uskunalari 44%ga, xizmatlar 21%ga, tayyor mahsulotlar 20%ga, oziq-ovqat mahsulotlarining 19%ga o'sishi bilan bog'liq. Shu bilan birga, O'zbekistonda mashina va transport uskunalari importi 45%ga, yoqilg'i mahsulotlari 45%ga, tayyor mahsulotlar 14%ga, kimyo mahsulotlari 14%ga o'sdi.

To'qqiz oy yakunlari bo'yicha mamlakat iqtisodiyoti rejalashtirilgan rivojlanish vektori doirasida ijobiy o'sish tendensiyasini davom ettirdi, deyiladi markaz tahlilida.

Investitsion faollikning o'sishi ichki va tashqi muammolarni yengishga yordam beradi, bundan tashqari inflyatsiyaning pasayishi tendensiyasi davom etmoqda, bu esa iqtisodiy muhitni barqarorlashtirishga olib keladi. Shu bilan birga, qo'shimcha xatarlar milliy valyuta kursining o'zgaruvchanligi va budjet taqchilligining oshishi bilan yuzaga keladi. Yil yakunida O'zbekiston iqtisodiyotining jadal o'sish sur'atlari davom etishi kutilmoqda.

Avvalroq Jahon banki O'zbekistonning joriy va kelasi yil uchun iqtisodiy o'sishi prognozi yaxshilangandi. Rossiyadan pul o'tkazmalarining kamayishi sabab joriy yilda iste'mol o'sishi pasayadi. Shu bilan birga, import o'sishining tezlashishi kutilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. Davlat statistika Qo'mitasi 2023 yil uchun O'zbekiston Respublikasini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy ko'rsatkichlari.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni.